O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMONI

# 2022 — 2026-YILLARDA RESPUBLIKANING FARMATSEVTIKA TARMOG‘INI JADAL RIVOJLANTIRISHGA OID QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

Aholini sifatli, samarali va xavfsiz farmatsevtika mahsulotlari bilan ta’minlashni yanada yaxshilash, farmatsevtika tarmog‘iga ilg‘or ilmiy-texnika yutuqlari va innovatsiyalarni joriy etish orqali tarmoqda ishlab chiqarish hajmini 3 barobarga oshirish, ichki bozorni ta’minlash darajasini natural hajmda 80 foizga yetkazish maqsadida:

1. Sog‘liqni saqlash vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Moliya vazirligi hamda Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi tomonidan ishlab chiqilgan, mahalliy farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni jadal rivojlantirishga ko‘maklashishga qaratilgan:

2022 — 2026-yillarda farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha prognoz parametrlari 1-ilovaga muvofiq;

2022 — 2024-yillarda farmatsevtika sohasida hududlarda amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining manzilli dasturi 2-ilovaga muvofiq;

2022 — 2026-yillarda farmatsevtika sohasida loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash talab etiladigan investitsiya loyihalarining ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Farmatsevtika sanoatini rivojlantirish bo‘yicha komissiya (keyingi o‘rinlarda — Komissiya) 4-ilovaga muvofiq tarkibda tuzilsin.

Komissiya (S. Umurzakov):

2022-yil 31-yanvarga qadar mazkur Farmonga 2-ilovada nazarda tutilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish ustidan oylik monitoring o‘rnatish va ularning o‘z vaqtida ishga tushirilishini ta’minlash choralarini belgilasin;

bir oy muddatda mazkur Farmonga 3-ilovada nazarda tutilgan istiqbolli loyihalarning loyihaoldi va loyiha hujjatlarini ishlab chiqish, moliyalashtirish manbalarini aniqlash hamda mahalliy va xorijiy investorlarni jalb qilgan holda ularni amalga oshirishni tashkil qilish bo‘yicha aniq choralar va mas’ullarni belgilasin;

investitsiya loyihalarini amalga oshirishda loyiha tashabbuskorlari, shuningdek, manfaatdor davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari faoliyatini muvofiqlashtirsin;

loyihalarni amalga oshirish holatini muntazam ravishda tahlil qilib, mavjud muammoli masalalarni hal etish choralarini ko‘rsin va natijalari yuzasidan har chorakda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga loyihalar va hududlar kesimida axborot kiritib borsin.

Komissiyaga jahon bozorining konyunkturasi va rivojlanish tendensiyalaridan kelib chiqqan holda, mazkur Farmonga 2-3-ilovalarda keltirilgan investitsiya loyihalar ro‘yxatini muntazam ravishda yangi loyihalari hisobiga to‘ldirib borish, zarur hollarda, ularga o‘zgartirishlar kiritish vakolati berilsin.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari:

farmatsevtika sohasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini shaxsan nazoratga olsin;

har oyda loyihalar tashabbuskorlari bilan birgalikda har bir loyiha amalga oshirilishini muhokama qilib, ularni belgilangan muddatda ishga tushirishda amaliy yordam ko‘rsatish choralarini ko‘rib borsin.

3. 2022-yil 1-apreldan farmatsevtika mahsulotlari xaridlariga ajratilishi rejalashtirilgan Davlat budjeti mablag‘lari miqdori doirasida mahalliylashtiriladigan farmatsevtika mahsulotlarini uch yil muddatga shartnoma tuzish orqali kafolatli xarid qilish mexanizmi joriy etilsin. Bunda:

kafolatli xarid qilish shartnomalarini tuzish bo‘yicha tanlovlar Sog‘liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi va Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi tomonidan birgalikda shakllantirilgan avval respublika hududida ishlab chiqarilmagan,

istiqbolda mahalliylashtiriladigan substansiyalar, dori vositalarining xalqaro patentlanmagan nomlari (bunday nom bo‘lmagan taqdirda, mansub dori vositalari guruh nomlari), tibbiy buyumlar va tibbiy texnikalar ro‘yxati (keyingi o‘rinlarda — farmatsevtika mahsulotlari ro‘yxati) doirasida amalga oshiriladi;

farmatsevtika mahsulotlari ro‘yxati Davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portalida, Sog‘liqni saqlash vazirligi hamda Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining internet saytlarida joylashtiriladi hamda har yili yangilanib boriladi;

kafolatli xarid qilish shartnomalarini imzolash uchun g‘oliblar ochiq tanlovlar orqali aniqlanadi va Sog‘liqni saqlash vazirligi ushbu tanlovlarda davlat buyurtmachisi va benefitsiar mulkdori hisoblanadi;

Sog‘liqni saqlash vazirligi va uning tizimidagi tashkilotlarga tuzilayotgan kafolatli xarid qilish shartnomalar doirasida oldindan bo‘nak to‘lovlarini o‘tkazishga ruxsat beriladi.

Sog‘liqni saqlash vazirligi (Musayev), Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi (Kariyev) Moliya vazirligi (Raximova), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Voitov), Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi (Abdinazarov) bilan birgalikda uch oy muddatda Sog‘liqni saqlash vazirligi buyurtmasiga asosan shaffof tanlov asosida farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ygan mahalliy ishlab chiqaruvchi tashkilotlar bilan uch yil muddatga shartnomalar tuzish orqali mahsulotlarni kafolatli xarid qilish mexanizmi va aniq shartlarini belgilagan holda davlat xaridlari tizimini joriy qilish bo‘yicha tegishli qonun loyihasini ishlab chiqib, o‘rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasiga kiritsin.

4. Belgilansinki:

a) farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi tashkilotlarni yanada qo‘llab-quvvatlash yo‘nalishida:

2022-yil 1-apreldan mahalliy ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqariladigan yangi farmatsevtika mahsulotlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish cheklanmagan muddatga amalga oshiriladi, avval berilgan ro‘yxatdan o‘tkazilganlik guvohnomalar, ularning amal qilish muddati tugaganidan so‘ng qo‘shimcha hujjatlar talab qilinmasdan 15 kun muddatda amal qilishi muddatsiz bo‘lgan guvohnomalarga almashtirib beriladi;

2022-yil 1-iyuldan O‘zbekiston Respublikasi hududida vakolatli tashkilot tomonidan rasmiylashtirilgan “Zarur ishlab chiqarish amaliyoti (GMP)”ga ega mahalliy ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan dori vositalarini va “ISO:13485” sertifikatiga ega ishlab chiqaruvchi tashkilotlar tomonidan ishlab chiqarilgan tibbiy buyum va tibbiy texnikani majburiy sertifikatlashtirish tartibi bekor qilinadi. Bunda mahalliy farmatsevtika mahsulotlarining talablarga muvofiqligi postmarketing nazorati va ixtiyoriy sertifikatlashtirish orqali amalga oshiriladi;

“Dori vositalari, tibbiy buyumlar va tibbiy texnika ekspertizasi va standartlashtirish davlat markazi” DUKga Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda ishlab chiqarilgan farmatsevtika mahsulotlarini sertifikatlashtirish uchun qabul qilingan buyurtmalarga ko‘ra namunalar tanlashni hududlardagi sertifikatlashtirish organlari ekspertlari orqali amalga oshirishga ruxsat beriladi;

b) farmatsevtika sohasidagi cheklovlarni kamaytirish yo‘nalishida:

donor qonini to‘plash va uning asosida farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishni xususiy tartibda amalga oshirishga taqiq;

dori vositalarining klinik tadqiqotlarini sog‘lom ko‘ngillilarda o‘tkazishga cheklov;

xalqaro brendlar asosida farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish hamda mavjud quvvatlardan to‘liq foydalanish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida tarkibi bir xil bo‘lgan dori vositalarini bir ishlab chiqaruvchi tomonidan turli savdo nomlari ostida ishlab chiqarishga cheklovlar bekor qilinadi;

v) zarur amaliyotlar (GxP) talablarini tizimli joriy etish yo‘nalishida:

2022-yil 1-apreldan farmatsevtika sohasida yangi ishlab chiqaruvchi korxonalar, ulgurji va chakana savdo tashkilotlari mos ravishda “Zarur ishlab chiqarish amaliyoti (GMP)”, “Zarur distribyutorlik amaliyoti (GDP)” va “Zarur farmatsevtika (dorixona) amaliyoti (GPP)” talablariga muvofiq ravishda tashkil etiladi;

farmatsevtika tarmog‘i va respublika sog‘liqni saqlash tizimidagi tashkilotlarni zarur amaliyotlar (GxP) talablariga muvofiq majburiy sertifikatlash muddatlari 2024-yil 1-yanvargacha uzaytiriladi;

2022-yil 1-fevraldan mahalliy ishlab chiqaruvchi tashkilotlarning farmatsevtika mahsulotlarini xorijiy davlatlarda ro‘yxatdan o‘tkazish xarajatlarining 75 foizi ular ro‘yxatdan o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hujjat taqdim etilgandan so‘ng Farmatsevtika tarmog‘ini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish jamg‘armasidan qoplab beriladi;

2023-yil 1-yanvardan farmatsevtika mahsulotlari bo‘yicha davlat xarid tanlovlarida faqatgina “Zarur ishlab chiqarish amaliyoti (GMP)” standartlari asosida dori vositalarini, “ISO:13485” standartlari asosida tibbiy buyumlar va tibbiy texnikani ishlab chiqarishni tashkil etgan tashkilotlar va “Zarur distribyutorlik amaliyoti (GDP)” standartlarini joriy etgan ulgurji savdo tashkilotlari qatnashishiga ruxsat beriladi.

5. Farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchilari, farmatsevtika mahsulotlarining ulgurji savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar, ixtisoslashgan ilmiy-tadqiqot institutlari va oliy ta’lim muassasalari tomonidan o‘z ehtiyojlari uchun olib kelinadigan hamda farmatsevtika mahsulotlarining ulgurji va chakana savdosi bilan shug‘ullanuvchi korxonalar tomonidan dorixona ichida dori tayyorlash maqsadida olib kiriladigan, O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan texnologik va laboratoriya uskunalari, ularning butlovchi va ehtiyot qismlari, farmatsevtika ishlab chiqarish binolari uchun “toza xonalar”, sendvich-panellar va ventilatsiya tizimlari, shuningdek, laboratoriya hayvonlarini boqish, klinik-oldi tadqiqotlar va dori vositalari ishlab chiqarish (shu jumladan dorixona ichida tayyorlash) uchun ishlatiladigan xomashyo va materiallar, tibbiyot buyumlari va qadoqlash materiallari Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan ro‘yxatlar bo‘yicha 2025-yil 1-yanvarga qadar bojxona bojlaridan ozod qilinsin.

6. Toshkent viloyati hokimligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Suv xo‘jaligi vazirligi va Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining:

Toshkent viloyati Zangiota tumanidagi “Tashkent Pharma Park” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasteriga (keyingi o‘rinlarda — Klaster) tutash hududdan qo‘shimcha 80 gektar yer maydonini ajratish hisobiga Klaster hududini kengaytirish;

Klaster hududini kengaytirish uchun ajratiladigan 80 gektar qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan sug‘oriladigan yer uchastkalarini sanoat maqsadlariga mo‘ljallangan yerlar toifasiga o‘tkazish;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan 80 gektar yer maydonining yer fondi toifasini o‘zgartirishda qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaligi ishlab chiqarishi nobudgarchiligi kompensatsiya to‘lovlarini, istisno tariqasida undirmaslik to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilsin.

Toshkent viloyati hokimligi (Mirzayev) ikki oy muddatda:

mazkur bandda ko‘rsatilgan yer uchastkalarini konturlarini belgilagan holda amaldagi foydalanuvchilardan davlat va jamoat ehtiyojlari uchun belgilangan tartibda olib qo‘yish va davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi (Kariyev), Kadastr agentligi (Umarov) bilan birgalikda yer uchastkasining “Tashkent Pharma Park” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasterini rivojlantirish direksiyasi davlat muassasasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratish;

Qurilish vazirligi (Zakirov), “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ (Mustafoyev), “Hududgazta’minot” AJ (Eshmuratov), “O‘zsuvta’minot” AJ (Saifnazarov) bilan birgalikda yangi ajratiladigan hududlarning batafsil rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish hamda transport, ishlab chiqarish va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasi bilan ta’minlash choralarini ko‘rsin.

7. “Tashkent Pharma Park” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasterini rivojlantirish direksiyasi va Klaster uchun qo‘shimcha ajratilgan yer maydonida o‘rnatilgan tartibda tashkil etiladigan ishlab chiqaruvchi tashkilotlarga nisbatan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi ““Tashkent Pharma Park” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmatsevtika klasterini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-4574-son qarori 7-bandining “v” kichik bandi va 11-bandi tatbiq etilsin.

8. Bosh vazir oʻrinbosari S.U. Umurzakov, Moliya vazirligi (Ishmetov), Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Vafayev) va Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi (Norqulov) ikki oy muddatda mahalliy farmatsevtika tashkilotlarining respublika hududida biofarmatsevtika yoʻnalishidagi dori vositalarini toʻliq sikl asosida ishlab chiqarishni tashkil etish, substansiyalar ishlab chiqarilishini mahalliylashtirish va xalqaro standartlar joriy qilinishini jadallashtirish doirasidagi loyihalarini moliyalashtirish maqsadida uzoq muddatli imtiyozli moliyalashtirish manbalarini aniqlashtirish boʻyicha “Yoʻl xarita”sini ishlab chiqib, amalga oshirsin.

9. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Vafayev) Eksportni ragʻbatlantirish agentligi orqali dori vositalarini “Zarur ishlab chiqarish amaliyoti (GMP)” talablari asosida ishlab chiqaruvchi tashkilotlarni qoʻllab-quvvatlashning quyidagi choralarini joriy etsin:

2025-yil 1-yanvarga qadar farmatsevtika mahsulotlarini barcha mamlakatlarga, shu jumladan, chegaradosh qoʻshni davlatlarga eksport qilishda avtomobil va temir yoʻl transportida tashish xarajatlarining 50 foizigacha, biroq mahsulotlar eksport qiymatining (transport xarajatlarisiz) 5 foizidan (avtomobil transportida tashish holatida) va 7 foizidan (temir yoʻl transportida tashish holatida) koʻp boʻlmagan miqdorda qoplashga subsidiyalar taqdim etish;

eksport qiluvchi farmatsevtika tashkilotlari tomonidan tovarlar ular boʻyicha toʻlovlarni kechiktirib toʻlash sharti bilan eksport qilinganda, ularning aylanma mablagʻlarini toʻldirish uchun revolver kreditlarni moliyalashtirishga tijorat banklariga foizsiz moliyaviy resurslar taqdim etish. Bunda, ushbu resurslar hisobidan kreditlar kechiktirilgan muddatga va eksport qilinayotgan mahsulotlar qiymati miqdorida, biroq 3 million AQSh dollari ekvivalentidan koʻp boʻlmagan miqdorda bir yilgacha muddatda yillik 4 foizli stavka (bank marjasi) bilan ajratiladi.

Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari boʻyicha Hukumat komissiyasi (S. Umurzakov) bir oy muddatda ushbu bandda nazarda tutilgan qoʻllab-quvvatlash choralarini amalga oshirish tartibini tasdiqlasin.

10. Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi (Voitov), Farmatsevtika tarmogʻini rivojlantirish agentligi (Kariyev) Qoraqalpogʻiston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda bir oy muddatda har bir investitsiya loyihasini muddatida va sifatli amalga oshirish boʻyicha “yoʻl xaritalari” ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi choralarini koʻrsin.

11. 2022 — 2026-yillarda farmatsevtika tarmogʻini yanada rivojlantirish boʻyicha “yoʻl xaritasi” 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga 6-ilovaga muvofiq oʻzgartirishlar va qoʻshimcha kiritilsin.

13. Sogʻliqni saqlash vazirligi (Musayev) manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda:

retseptsiz farmatsevtika mahsulotlari savdosini erkinlashtirish boʻyicha;

qonunchilik hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan oʻzgartirish va qoʻshimchalar toʻgʻrisida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

14. Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga masʼul va javobgar etib Bosh vazir oʻrinbosari S.U. Umurzakov va sogʻliqni saqlash vaziri B.A. Musayev belgilansin.

Farmon ijrosini har chorakda muhokama qilib borish, ijro uchun masʼul idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Oʻzbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov zimmasiga yuklansin.

**Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV**

Toshkent sh.,
2022-yil 21-yanvar,
PF-55-son

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi PF-55-son Farmoniga
1-ILOVA

## 2022 — 2026-yillarda farmatsevtika tarmogʻini rivojlantirish boʻyicha

## PROGNOZ PARAMETRLARI

| Maqsadli parametrlar | Amaldagi holat | Kutilayotgan ko'rsatkichlar | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2022-yil | 2023-yil | 2024-yil | 2025-yil | 2026-yil |
| **Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi** *(mlrd.so'm)** | 3,2 | 3,6 | 3,9 | 4,2 | 5,9 | 8,2 |
| **O'zlashtirilgan mahsulotlar soni** *(dona)* | 3350 | 3450 | 3800 | 4150 | 4800 | 5100 |
| **Dori vositalariga bo'lgan yillik talabni qoplash darajasi** *(mahsulot ko'rinishida)* | 45% | 55% | 59% | 63% | 78% | 80% |
| **Farmatsevtika mahsulotlari eksporti** *(mln.dollar)** | 60 | 90 | 100 | 110 | 122 | 130 |

** 2021-yil narxlarida ko'rsatilgan*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-yanvardagi PF-55-son Farmoniga
2-ILOVA

**2022 — 2024-yillarda farmatsevtika sohasida amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarining**

MANZILLI DASTURI

| T/r | Loyiha tashabbuskorlari va loyiha nomi | Tuman va shaharlar nomi | Loyiha quvvati | Loyihaning umumiy qiymati *(mln. doll.)* | shundan, moliyalashtirish m | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | o'z mablag'lari | tijorat bank kreditlari | Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari | davlat kafolat ostidag xorijiy kreditla |
| **72.** | **Jami** | | | **370,95** | **74,23** | **31,61** | **32,0** | **83,7** |
| **6.** | **Andijon viloyati** | | | **59,89** | **4.75** | | | |
| 1. | "Cadila Pharmaceuticals Uzbekistan" LTD tomonidan inyeksion shakldagi dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish (3-bosqich) | Andijon viloyati, Andijon tumani | 250 mln. qadoq | 19,50 | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 2. | "Cadila Pharmaceuticals Uzbekistan" LTD tomonidan Substansiyalar va dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish (2-bosqich) | Andijon viloyati, Andijon tumani | 90 mln. qadoq | 15,90 | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 3. | "Cadila Pharmaceuticals | Andijon viloyati, | 60 mln. qadoq | 14,60 | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | Uzbekistan” LTD tomonidan Tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish (1-bosqich) | Andijon tumani | | | | | | |
| 4. | “Akson Laboratories” MChJ tomonidan Inyeksiya va infuziya shaklidagi dori vositalari ishlab chiqarishni tashkil etish | Andijon viloyati, Andijon tumani | 20 mln. qadoq | 8,30 | 3,50 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 5. | “Makon Mirzo” MChJ tomonidan Bandaj va karset shaklidagi tibbiy buyumlarni ishlab chiqarishni tashkil qilish | Andijon viloyati, Andijon tumani | 2,3 mln. dona | 1,00 | 1,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 6. | “Zamin Med Tech” MChJ tomonidan Tibbiyot uskunalari ishlab chiqarishni tashkil etish | Andijon viloyati, Andijon tumani | 200 ming dona | 0,59 | 0,25 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| **7.** | **Buxoro viloyati** | | | **50,24** | **4,95** | **2,72** | | |
| 7. | “Tibtexnika” MChJ tomonidan Tibbiyot buyumlari (koronar stent, provodniklar introdyuserlar) ishlab chiqarishni kengaytirish | Buxoro viloyati, Buxoro shahri | 20 mln. qadoq | 7,20 | 0,20 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 8. | “Le Uat De Bukhara” MChJ tomonidan Tibbiy doka hamda tibbiyot paxtasi ishlab chiqarishni tashkil etish | Buxoro viloyati, Buxoro shahri | 3000 p.m | 4,86 | 2,14 | 2,72 | 0,00 | 0,00 |
| 9. | “Shoxmirzo” XK tomonidan tabletka va | Buxoro viloyati, | 1000 mln dona | 3,45 | 0,55 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | kapsula shakldagi dori vositalari ishlab chiqarishni tashkil qilish | Vobkent tumani | | | | | | |
| 10. | “Baxsh Savdo Biznes” MChJ tomonidan nitril qo‘lqoplar ishlab chiqarishni tashkil etish | Buxoro viloyati, G‘ijduvon tumani | 12 mln dona | 2,24 | 1,32 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 11. | “Mirzamedsavdo” MChJ tomonidan Tabletka va kapsula shakldagi dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish | Buxoro viloyati, Buxoro shahri | 5 mln dona | 1,46 | 0,46 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 12. | “Mariteks Buxara” qo‘shma korxonasi tomonidan tibbiyot bintlarini ishlab chiqarishni tashkil etish | Buxoro viloyati, Jondor tumani | 12,5 mln. dona | 1,18 | 0,18 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 13. | “Maxmud max medikal” MChJ tomonidan Tibbiy bint ishlab chiqarishni tashkil etish | Buxoro viloyati, Peshku tumani | 47 tonna | 0,15 | 0,10 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| **2.** | **Jizzax viloyati** | | | **3,86** | **1,48** | **1,38** | | |
| 14. | “Nighland Pharm” MChJ tomonidan Bir marotaba ishlatiladigan tibbiyot va kosmetologik qo‘lqoplar ishlab chiqarishni tashkil etish | Jizzax viloyati, Zomin tumani | 19,2 ming dona | 2,86 | 1,48 | 1,38 | 0,00 | 0,00 |
| 15. | “Ukor Zomin” UK tomonidan Tibbiy uskunalar ishlab chiqarishni tashkil etish | Jizzax viloyati, Zomin tumani | 100 dona | 1,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| **4.** | **Qashqadaryo viloyati** | | | **5,00** | **1,25** | **3,13** | | |
| 16. | “Gold Biomed” MChJ tomonidan inyeksion va infuzion eritmalar | Qashqadaryo viloyati, Mirishkor tumani | 7 mln.dona | 3,89 | 0,97 | 2,92 | 0,00 | 0,00 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | ishlab chiqarishni tashkil etish | | | | | | | |
| 17. | “Modern Galen Farm” MChJ tomonidan Galen preparatlarini ishlab chiqarishni tashkil etish | Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani | 20 tonna | 0,76 | 0,14 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 18. | “Xushvaqt Shoximardon qizi” ishlab chiqarish korxonasi tomonidan Tibbiy buyum va nam salfetkalar ishlab chiqarishni tashkil etish | Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumani | 1 mln.dona | 0,31 | 0,13 | 0,18 | 0,00 | 0,00 |
| 19. | “Meda Denta med” x/k tomonidan tibbiyot vatasi ishlab chiqarish va shifobaxsh isiriqni qadoqlashni tashkil etish | Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumani | 64 tonna | 0,04 | 0,01 | 0,03 | 0,00 | 0,00 |
| **2.** | **Navoiy viloyati** | | | **1,28** | **0,91** | **0,37** | | |
| 20. | “Standart Diagnostika Ray” MChJ tomonidan Tibbiy buyumlar ishlab chiqarishni tashkil etish | Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani | 3 mln. dona | 1,00 | 0,81 | 0,19 | 0,00 | 0,00 |
| 21. | “Avisenna” MChJ tomonidan Galen dori vositalari ishlab chiqarishni kengaytirish | Navoiy viloyati, Navoiy shahri | 684.5 tonna | 0,28 | 0,10 | 0,18 | 0,00 | 0,00 |
| **7.** | **Namangan viloyati** | | | **10,94** | **5,62** | **2,62** | | |
| 22. | “AX Medical Farm” MChJ tomonidan Tibbiyot sistemalarini ishlab chiqarishni tashkil etish | Namangan viloyati, Uychi tumani | 30 mln.dona | 3,64 | 0,64 | 1,20 | 0,00 | 0,00 |
| 23. | “Synergy” MChJ tomonidan Tibbiy uskunalar, tibbiy vositalar ishlab | Namangan viloyati, Kosonsoy tumani | 3 mln. dona | 1,75 | 1,75 | | | |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | chiqarishni tashkil etish | | | | | | | |
| 24. | “Axsikent sof sanoat” MChJ tomonidan Tibbiyot qo‘lqoplari va tibbiyot vositalari ishlab chiqarishni tashkil etish | Namangan viloyati, Kosonsoy tumani | 15 mln dona | 1,45 | 0,55 | | | |
| 25. | “Texno farm” MChJ tomonidan Tabletka, ampula va kapsula shaklidagi tayyor dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish | Namangan viloyati, Kosonsoy tumani | 3,5 mln dona | 1,39 | 1,39 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 26. | “Namangan Pharm Plant” MChJ tomonidan Tabletka, kapsula va ampula shaklidagi tayyor dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish | Namangan viloyati, Namangan shahar | 80 mln. dona | 1,00 | 0,50 | 0,50 | 0,00 | 0,00 |
| 27. | “Kamol Med Farm” MChJ tomonidan maz va suppozitoriya, sirop shaklidagi tayyor dori vositalarni ishlab chiqarishni tashkil etish | Namangan viloyati, Kosonsoy tumani | 20 mln. dona | 1,11 | 0,19 | 0,92 | 0,00 | 0,00 |
| 28. | “Spring Pharmaceutical” MChJ tomonidan 30 turdagi tabletka va kapsula shakldagi dori vositalarini dori vositalari ishlab chiqarishni tashkil etish (2-bosqich) | Namangan viloyati, Kosonsoy tumani | 15 mln. dona | 0,60 | 0,60 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| **3.** | **Samarqand viloyati** | | | **29,28** | **1,78** | **7,49** | | |
| 29. | “Multi Fruite Korea” MChJ XK tomonidan qandli diabet kasalligiga | Samarqand viloyati, Samarqand tumani | 275 tn | 20,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | qarshi dori vositalari ishlab chiqarishni tashkil etish | | | | | | | |
| 30. | "Samarkand England Eco-Medical" MChJ QK tomonidan infuzion eritmalarni ishlab chiqarishni tashkil etish | Samarqand viloyati, Samarqand shahri | 20 mln dona | 9,00 | 1,60 | 7,40 | 0,00 | 0,00 |
| 31. | "Sifat elegant servis" MChJ tomonidan tibbiy qoʻlqoplar, bolalar tagliklari ishlab chiqarishni tashkil etish | Samarqand viloyati, Payariq tumani | 1,2 mln dona | 0,28 | 0,18 | 0,09 | 0,00 | 0,00 |
| **2.** | **Sirdaryo viloyati** | | | **6,62** | **0,92** | | | |
| 32. | "Omonmedfarm" MChJ tomonidan inyeksion va infuzion eritmalar ishlab chiqarishni tashkil etish (2-bosqich) | Sirdaryo tumani, Guliston shahar | 15 mln dona | 5,23 | 0,83 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 33. | "River Med Farm" tomonidan infuzion eritmali dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish (2-bosqich) | Sirdaryo viloyati, Sirdaryo tumani | 20 mln dona | 1,39 | 0,09 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| **5.** | **Surxondaryo viloyati** | | | **8,05** | **4,36** | **0,11** | | |
| 34. | "Osiyo Dori" MChJ tomonidan infuzion sistemalar, infuzion eritmalar va tibbiyotda qoʻllaniladigan suyuqliklar ishlab chiqarishni tashkil etish | Surxondaryo viloyati, Muzrabod tumani | 60 mln dona | 3,61 | 2,61 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 35. | "Osiyo Darmon Servis" MChJ tomonidan Tibbiyot qoʻlqoplari ishlab chiqarishni tashkil etish | Surxondaryo viloyati, Muzrabod tumani | 40 mln dona | 2,71 | 1,71 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 36. | “Baysun White Road” MChJ tomonidan Bir martalik tibbiyot shpritslari ishlab chiqarishni tashkil etish | Surxondaryo viloyati, Boysun tumani | 35 ming dona | 1,58 | 0,00 | | | |
| 37. | “Hayotbek Boysun” MChJ tomonidan Galen preparatlarini ishlab chiqarishni tashkil etish (yod, brilliant ko‘ki, menovazin) | Surxondaryo viloyati, Boysun tumani | 10 tonna | 0,08 | 0,02 | 0,06 | 0,00 | 0,00 |
| 38. | “Zaynab Giyoh” KTXF tomonidan Tibbiyot binti va tibbiyot niqoblari ishlab chiqarishni tashkil etish | Surxondaryo viloyati, Denov tumani | 15000 dona | 0,07 | 0,02 | 0,05 | 0,00 | 0,00 |
| **12.** | **Toshkent viloyati** | | | **179,68** | **29,47** | **9,95** | **32,00** | **83,70** |
| 39. | “Zuma Pharma” MChJ tomonidan Liofil va ishlatishga tayyor shprits-ruchka shaklidagi dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish | Toshkent viloyati, Parkent tumani | 20 mln. qadoq | 8,50 | 2,00 | 5,80 | 0,00 | 0,00 |
| 40. | “Radiks” MChJ tomonidan Tibbiy buyumlar *(tibbiyot dokasi va bint)* ishlab chiqarishni tashkil etish | Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani | 25 mln. sh.b. | 7,70 | 3,85 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 41. | “Lekhim Astarta” MChJ QK tomonidan inyeksiya shaklidagi dori vositalarni ishlab chiqarishni tashkil etish | Toshkent viloyati, Qibray tumani | 25 mln. sh.b. | 7,70 | 3,85 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 42. | “Deutche Servis” MChJ tomonidan Stafilokokk kasalligiga qarshi korpuskulyar vaksinasi hamda | Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani | 200 mln. dona | 6,32 | 1,58 | 3,74 | 0,00 | 0,00 |

| | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | bir martalik meditsina shpritsi mahsulotlarini ishlab chiqarish | | | | | | | | |
| 43. | “Solyphar Laboratories” MChJ XK tomonidan Tabletka va kapsula shaklidagi dori vositalari ishlab chiqarishni tashkil etish | Toshkent viloyati, Bo‘stonliq tumani | 100 mln dona | 5,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 44. | “Magnit Grand Farm” MChJ tomonidan tayyor dori vositalari (gemsitabin, bisoprorol, tseftraksion) ishlab chiqarishni tashkil etish | Toshkent viloyati, Parkent tumani | 16,17 mln. dona | 4,20 | 1,20 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 45. | “Binovatis Agro” MChJ tomonidan Biologik va mikrobiologik himoyani tashkil qilish vositalarini tayyorlash ilmiy ishlab chiqarish markazini tashkil etish | Toshkent viloyati, Piskent tumani | obyekt | 4,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 46. | “Beta Ubk International Private Limited” MChJ tomonidan onkologik dori vositalarini ishlab chiqarishni tashkil etish | Toshkent viloyati, Bekobod shahar | 72 mln. dona | 2,20 | 0,00 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 47. | “Ultra Nealth Care” MChJ QK tomonidan Dori vositalari inyeksion vositalar ishlab chiqarishni tashkil etish | Toshkent viloyati, Chirchiq shahar | 30 mln. dona | 2,18 | 2,18 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |
| 48. | “Angren Medic Medical Equipment” | Toshkent viloyati, | 100 ming dona | 1,04 | 0,08 | 0,00 | 0,00 | 0,00 |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | MChJ tomonidan Tibbiyot mahsulotlarini ishlab chiqarish | Angren shahar | | | | | | |
| 49. | “MAX and TOP” MChJ tomonidan Tabletka va kapsula shakldagi dori vositalarini ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish | Toshkent viloyati, Toshkent tumani | 28,8 mln.dona | 0,64 | 0,23 | 0,41 | 0,00 | 0,00 |
